https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shaxnoz Xikmatovna Samiyeva
Buxoro davlat texnika universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori
samieva-1978@mail.ru , +99890510-31-03

MA'RIFATLI AYOL — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy sohada faoliyat yuritayotgan ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning ilmiy yutuqlari hamda professional rivojlanish jarayonida duch kelayotgan muammolari kompleks tahlil qilinadi. Maqolada ilm-fan taraqqiyotida ayollar hissasining ortib borayotgan ahamiyati, ularning ilmiy izlanishlarda faol ishtirokini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mazkur jarayonni belgilovchi muhim omillar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, bir qator mamlakatlar tajribasi misolida ilmiy faol ayollar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. ilmli ayollar, gender tengligi, ayollar huquqlari, ilm-fan, ayollarning ijtimoiy o'rni, ta'lim, ilmiy faoliyat, ayollar yetakchiligi.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ роли женщин, работающих в научной сфере, их научных достижений, а также проблем, с которыми они сталкиваются в процессе профессионального развития. В исследовании освещается возрастающее значение вклада женщин в развитие науки, рассматриваются проводимые реформы, направленные на расширение их участия в научно-исследовательской деятельности, а также ключевые факторы, определяющие данный процесс. Кроме того, на основе сравнительного анализа изучается опыт ряда стран по созданию условий и возможностей для активной научной деятельности женщин.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова: научные женщины, гендерное равенство, права женщин, наука, социальная роль женщин, образование, научная деятельность, женское лидерство.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the role of women engaged in scientific activities, their academic achievements, and the challenges they face in the process of professional development. The study highlights the growing importance of women's contribution to scientific progress, examines ongoing reforms aimed at expanding their participation in research activities, and identifies key factors shaping this process. Furthermore, the article offers a comparative analysis of several countries' experiences in creating favorable conditions and opportunities for women in science.

Keywords: women in science, gender equality, women's rights, science, social role of women, education, scientific activity, women's leadership.

Kirish

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar doirasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ilm-fan sohasining barcha yo‘nalishlarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy jamiyatning biron-bir sohasi ayollarning faol ishtirokisiz va ularning intellektual salohiyatisiz to‘laqonli tasavvur etib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda ayollarning jamiyatdagi mavqei va nufuzini oshirish, ularning ma’naviy barkamol va komil avlod tarbiyasidagi beqiyos o‘rnini e’tirof etish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, izchil amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston ayollari siyosat, ta’lim, fan, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalarda faol ishtirok etib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Xususan, milliy parlamentda ayollar ulushining sezilarli darajada

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ortgani mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash borasidagi siyosat izchil va samarali kechayotganining yorqin dalilidir.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida zamonaviy jamiyatni barpo etishda yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorlikni chuqur his qiladigan, mamlakatning jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishida o‘z mas’uliyatini anglaydigan, kreativ va innovatsion fikrlashga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ta’kidlab, ushbu yo‘nalishda konseptual yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini qayd etadi [1, 295]. Mazkur fikrlar ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalarining dolzarbligini yanada asoslaydi.

Asosiy qism

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning ilm-fan sohasidagi o‘rnining tobora yuksalib borayotganini yaqqol namoyon etmoqda. Bu holat, bir tomondan, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan kuch sifatidagi mavqeini tasdiqlasa, boshqa tomondan, barkamol avlod tarbiyasida ularga yuklanayotgan mas’uliyatning naqadar ulkanligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ilm-fan rivojisiz jamiyatning barqaror taraqqiyotga erishishi imkonsizdir. XXI asrning texnologiyalar va innovatsiyalar asriga aylangani, ilm-fanni rivojlantirish global raqobatning asosiy omillaridan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyot, sanoat va ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiyalash, ilm-fan salohiyatini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Dunyo hamjamiyatida tobora mustahkam o‘rin egallab borayotgan O‘zbekiston uchun ham ilm-fan sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yo‘nalishiga aylangan. So‘nggi yillarda ma’rifat, ta’lim va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘ttizdan ortiq farmon, qaror, farmoyish hamda qonunlar qabul qilinib, ilmiy salohiyatni oshirishga keng ko‘lamli zamin yaratildi. Chunki ilm-fan mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy salohiyati va xalq farovonligining poydevori hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va fan–ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan.

Ayollarning jamiyatdagi rolini ilmiy asosda o‘rganish kelajak mutaxassislar uchun ham ijtimoiy, ham ma’naviy nuqtayi nazardan zarurdir. Mazkur bilimlar talabalarda nafaqat kasbiy malakani, balki axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ayollari tarixan hayotning barcha jabhalarida faol bo‘lib kelgan. Xotin-qizlarning oilada, ijtimoiy-siyosiy hayotda, davlat boshqaruvida va jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki ularning ong, tafakkur va intellektual salohiyatining yuksalishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayollarning fan-texnika yutuqlarini puxta egallashi, ilmiy izlanishlarda faol qatnashishi va o‘z qobiliyatlarini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida safarbar etishi mamlakat rivoji uchun muhim omil sanaladi.

O‘zbekiston qadimdan ilm-fan beshigi sifatida tanilgan bo‘lib, uning zamini jahon ilm-fani va madaniyatining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishtirgan. Shu ma’noda ilm-fan har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilovchi strategik soha hisoblanadi.

Tarixiy jarayonlarda ayolning asosiy roli oilaviy-moddiy hayotni tartibga solish bilan chegaralangan bo‘lsa, zamonaviy taraqqiyot, ilmiy kashfiyotlar va gender tengligini ta’minlash borasidagi global tendensiyalar ayolning jamiyatdagi o‘rnini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ayol faqatgina oila tutumi bilan cheklanmay, balki professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi, o‘z ijtimoiy mavqeini mustahkamlashi va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi zarur bo‘lgan sub’yekt sifatida qaralmoqda. Ayollar ilm-fan, ta’lim, innovatsiya, boshqaruv va ijtimoiy islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

aylanib bormoqda. Shu bois ziyoli ayollar zimmasiga intellektual salohiyatni oshirish, ta’lim-tarbiya sifatini yuksaltirish, yosh avlodga ma’naviy o‘rnak bo‘lish kabi muhim vazifalar yuklanmoqda.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, — degan fikri orqali ayollarning ta’limdagi rolini chuqur ochib bergan. Bugungi kunda Uchinchi Renessansni barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar xotin-qizlarning ilmiy va ma’rifiy salohiyatini yanada rivojlantirishni talab etmoqda.

Tarix davomida ayollarning ilm-fan bilan shug‘ullanishi murakkab jarayon bo‘lgan bo‘lsa-da, jahon ilm-fanida buyuk natijalarga erishgan ayol olimalar faoliyati ularning intellektual imkoniyatlari naqadar yuksak ekanini namoyon etadi. Bugungi kunda ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ayollar faolligining ortib borayotgani gender tengligining real natijasidir.

Bizningcha, Yangi O‘zbekistonda buyuk ishlarni davom ettirishga qurbi yetadigan davlat bo‘lib, hech kimdan kam bo‘lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish, o‘z oldiga oliyjanom maqsadlar qo‘ygan, ilmu fan cho‘qqilarini egallashga bel bog‘lagan, qiyinchilik va sinovlar oldiga bosh egmaydigan, ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lib maydonga chiqadigan sog‘lom, barkamol, mard va shijoatli yoshlarning qanday ta’lim-tarbiya olishi albatta ayollarga bog‘liqdir. Ularning ongi, qalbiga nima yozilsa, ularning kelajagi ham shunday bo‘ladiki, jamiyatning qiyofasi ayollarning ruhiyatiga bog‘liqdir. Ziyoli ayollar ham bundan mustasno emas.

Ta’kidlash kerakki, ma’rifatli ayol – jamiyatning taraqqiyot yo‘lidir, chunki aynan u, bolalarni tarbiyalaydi va ularning ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. “O‘zingiz ayting, joylarda odamlarning dardu tashvishlarini, oila va mahalladagi ahvolni kim hammadan ko‘ra ko‘proq biladi, kim hammadan yaxshiroq his qiladi? Albatta, hurmatli va mehribon ayollarimiz emasmi? Hech shubhasiz, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida hal etishda, boshqaruv samarasini oshirishda opa-singillarimizning o‘rni va ta’siri juda katta.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shuning uchun biz xotinqizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish, ularga turli mas’ul vazifalarni ishonib topshirishga qaratilgan siyosatni yanada faol davom ettiramiz” [2].

O‘zbekistonda ilm-fan ko‘p asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. O‘zbek zaminidan Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi va jahon ilm-fani xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab buyuk olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Mamlakatimiz olimlarining bugungi avlodi jahon ilm-fanining buyuk ijodkorlari, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ko‘plab vakillari nomini mamnuniyat bilan esga oladi. Bugun O‘zbekiston olimlari mamlakatimiz ilm-fanini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, XX asr boshlarida xotin-qizlarning o‘qimishli, ilmli, madaniyatli, o‘z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo‘lib yetishishlari kabi masalalar jadid ma’rifatparvarlarining qarashlarida eng muhim masalalardan biri bo‘lgan. Bu mavzuda ko‘plab maqolalalar, she’rlar, badiiy asarlar nashr etib borilgan. Iste’dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilari vakili Abdulla Avloniy xotin-qizlarning ilm olishiga, kasb- hunar o‘rganishiga targ‘ib qilib yozgan she’rlari bilan bir qatorda, bu masalada tanqidiy qarashlarini keltirish joiz: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi pahmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” der [4].

“Ilm olmoq har bir erkak va ayolning burchidir” – deyiladi Hadisi sharifda. Ilm egallamoq oliy saodat bo‘lsa, uni ezgu ishlarga sarflamoq baxt dovonining eng baland cho‘qqisidir. Sharq mamlakatlarida yaratilgan badiiy asarlarga nazar tashlasak, ijtimoiy hayotga xos hamma go‘zalliklar, jumladan, tabiatga xos

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko‘rkamlik ham ayollar tasviri orqali aks ettirilgan. Muqaddas “Avesto” kitobida ham ayol qalbining buyuk salohiyati ona zamin bilan tenglashtirilgan. Allomalarimiz, mutafakkiru-musavvirlarimiz asarlarida ham ayollarga xos boqiy nazokat, sabr-qanoat bilan bir qatorda ularning o‘z farzandlari va oila oldidagi, shuningdek, umuman inson va olam oldidagi burch va mas’uliyatlari ehtirom bilan tarannum etgan.

O‘zbek ayolining haqiqiy qiyofasini tasavvur qilmoq uchun u bosib o‘tgan uzoq yo‘lga, avvalo uning o‘tmishiga, so‘ngra esa kechagi va bugungi kuniga chuqur nazar tashlab, uning kelajagi haqida xayol qilmoqlik mumkin. Amir Temur va temuriylar sulolasiga mansub bo‘lgan, sohibqironning onasi Taginabegim va suyukli rafiqasi Saroymulkxonim, Zahiriddin Muhammad Boburning buvisi Eson Davlatbegim kabi ayollarimiz jamiyat hayotidagi ma’lum bir mavqega ega bo‘lib, ular orasidan buyuk hukmdorlar, oqila ilm li ayollar, yetuk donishandlar, olimalar, buyuk shoirlar yetishib chiqqanlar.

Xulosa

Bugungi kunda ayollar nafaqat o‘qituvchilar, olimlar va rahbarlar, balki mamlakat hayotida asosiy rolni bajaruvchi siyosiy va ijtimoiy arboblardir. Ular professional faoliyat bilan bir qatorda oilaviy vazifalarni ham muvaffaqiyatli olib borish orqali jamiyatning ma’naviy va iqtisodiy barqarorligiga hissa qo‘shmoqda. Shu munosabat bilan ayollarning ijtimoiy-faoliyati ikki tomonlama professional va oilaviy majburiyatlarning muvozanatiga asoslanadi va bu muvozanatni ta’minlash gender tengligiga erishish hamda ayollarning jamiyatdagi o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash uchun muhim shart hisoblanadi.

Ilm-fan, ta’lim va boshqa sohalarda ayollarning faol ishtiroki ularning jamiyatdagi “ko‘zgusi” sifatida namoyon bo‘ladi: ayollarning erishgan yutuqlari, ma’naviy-axloqiy salohiyati va kasbiy kompetentsiyalari butun jamiyatning taraqqiyotidan dalolat beradi, shu bois, ayollar salomatligi va jismoniy barkamolligi milliy rivojlanishning asosiy tarkibiy elementlaridan biri sifatida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qaralishi lozim, chunki sog‘lom va faol ayollar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini mustahkamlovchi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab yosh qizlar va ayollar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faollikni oshirish, yuqori ma’naviy fazilatlarni singdirish va milliy tafakkurni rivojlantirishni o‘zlarining asosiy maqsadi sifatida belgilashmoqda. Yoshlarni madaniy va tarixiy an’analarimizga hurmat, Vatanga sadoqat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, tadbirkorlik va kasb-hunar ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Ayollarning professional va oilaviy majburiyatlarini muvozanatlash imkonini beruvchi davlat va korporativ siyosatni rivojlantirish zarur. Shu maqsadda ijtimoiy dasturlarni kengaytirish, ish beruvchilar va tashkilotlarda gender tengligini rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish lozim. Bu, o‘z navbatida, ayollarning jamiyatdagi rolini mustahkamlash va ularning faoliyatini samarali integratsiyalashga xizmat qiladi.

2. Ayollarning jismoniy salomatligini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni, prevensiya va tiklanish xizmatlarini kengaytirish orqali ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash muhimdir. Bu nafaqat shaxsiy salomatlikni mustahkamlaydi, balki ayollarning professional faoliyat va oilaviy majburiyatlarini muvozanatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Ayollarni STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) va zamonaviy kasblarga jalb etish bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga mentorlik tizimlarini joriy etish orqali yosh ayollarga ilmiy va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, yangi texnologiyalar va innovatsion iqtisodiyot sharoitida zamonaviy malakali kadrlarni tayyorlash uchun muhimdir.

4. Yoshlarni an’anaviy va milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat, ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash zarur. Shu maqsadda, ta’lim-tarbiya loyihalarini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

integratsiyalash orqali yosh avlodning ma’naviy-axloqiy salohiyatini shakllantirish va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

5. Ayol olimlar va tadbirkorlarni moliyaviy rag‘batlantirish, ilmiy grantlar va mikrokreditlar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish.

Umuman olganda, ayollarning jamiyat va ilm-fan sohasidagi faolligini ta’minlash milliy taraqqiyotning uzluksizligi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuniingdek, mamlakatimizning strategik maqsadlariga erishishda ayollarning hamda yosh qizlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: ―O’zbekiston‖ nashriyoti, 2021. 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T.4. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. 122 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtlidir // Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. 247-251 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq // tanlangan asarlar. 37-bet.
5. Samiyeva Sh. X., Usmonova G. X. Научные направления развития творческих и интеллектуалных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – S. 35-38.
6. Samiyeva Sh. X. i dr. Актуальные направления подготовки студентов к духовно-просветительской деятельности.
7. Karimov O‘., Karimova G., Karimov O‘. Ilm-Fan Va Ta’lim Sohasidagi Axborotlashuv //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – S. 103-110.